



**“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”
AJ boshqaruvi raisining birinchi
o‘rinbosari**

A. Nazirov

**“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining
korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari
haqida 2024-yil I chorak yakunlari bo‘yicha**

HISOBOT

I. Umumiy ma‘lumot

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” 2019-yil 27-martdagi PQ-4249-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Mazkur qarorga asosan yangi tashkil etilgan “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ O‘zbekiston Respublikasining magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish, elektr energiyasini respublikaning magistral elektr tarmoqlari orqali yetkazib berish va davlatlararo tranzitni amalga oshirish, qo‘shni davlatlarning elektr energetika tizimi bilan hamkorlik qilish “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning asosiy faoliyatni amalga oshiradi.

Bugungi kunda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tarkibida 14 ta hududiy magistral elektr tarmoqlari, qurilish va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi funksional filiallar mavjud. Jamiyatga qarashli 85 ta podstantsiya va 12 ming km.dan ortiq 220-500 kVli magistral havo elektr uzatish liniyalari mavjud. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ markaziy apparati va tarkibidagi tuzilma hamda filiallarda jami bo‘lib 4300 nafardan ziyod mutaxassis-xodimlar mehnat faoliyati olib bormoqda.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning **uzbekistonmet.uz** rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish — O‘zbekiston MET” AJ” nomli rukn va sahifalar ochilgan. Unda Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, tegishli ma‘lumotlar berib boriladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va “yashirin

iqtisodiyot”ni qisqartirish choralari ko‘rilmogda, “Korrupsiyasiz soha” loyihalarining joriy etilishi yuzasidan muhim vazifalar ijrosi ta’minlanmogda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining samaradorligini ta’minlash maqsadida xorij amaliyoti uyg‘unligida korrupsiya ko‘rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish — davr talabi hisoblanadi.

2021-yil 22-uyulda Jamiyat energotizimda birinchilardan bo‘lib “ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi xalqaro sertifikatini”ni qo‘lga kiritdi.

Xalqaro standart talablariga ko‘ra, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi tizimli ish jarayoni yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, rahbar xodimlarga shu sohada o‘z malakalarini oshirish hamda malaka oshirish jarayonida olgan bilimlarini amalda qo‘llash, umuman, tizimli ish jarayonini joriy etish maqsadida maxsus o‘quv kursi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi bo‘yicha o‘quv kursi tashkil etilib, unda 20 nafar markaziy apparat hamda filiallar xodimlari qatnashib, korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishida o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamladi va sertifikatlar bilan taqdirlandi.

Ushbu o‘quv kursida tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini shakllantirish, korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy qilishning asosiy omillari, korrupsiyaviy xavfni baholash, manfaatlar to‘qnashuvi hamda sovg‘a olish-berish siyosatini tartibga solish, ichki audit tizimining ishini samarali tashkil etish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ichki me‘yoriy tartib-qoidalarini ishlab chiqish bo‘yicha tegishli bilimlar o‘zlashtirildi.

Shu bilan birga, Jamiyat markaziy apparati hamda filiallar xodimlari bilan davra suhbatlari, ma‘ruzalar tashkil etilib, unda Jamiyat faoliyatining shaffofligi ijro intizomining qat‘iy talablariga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayoniga raqamli texnologiyalar kirib kelishi orqali inson omilining kamaytirilishiga, nazorat-taftish, hisobotlarning to‘g‘riligiga, amalga tatbiq etilayotgan ichki buyruq va topshiriqlarning huquqiy asoslari — amaldagi qonunchilikka ko‘ra ish ko‘rilishiga, ishchi-xodimlarning bilim-tafakkuri va tarbiyasi, ma‘naviy dunyosiga bog‘liqligi o‘ta dolzarb masalalardan ekanligi tushuntirildi. Faoliyat qancha ochiq va shaffof bo‘lib, amaldagi qonunlarga tayangan tarzda amalga oshirilsa korrupsiyaga shunchalik sharoit bo‘lmasligi, unga qarshi kurashish faqat to‘g‘ri va halol ishlashga, o‘z ishiga sidqidildan yondashishga ko‘p tomonlama bog‘liq erkanligi davra suhbatlarining asosiy mavzusiga aylandi.

Ta’kidlash joizki, ISO 37001:2016 — bu tashkilotda korrupsiyaga qarshi samarali tizimni yaratish uchun xalqaro modelni o‘z ichiga olgan dunyodagi birinchi xalqaro standart hisoblanadi. Alohida e’tirof etish joiz, ISO 37001:2016 sertifikatini olish orqali tashkilot investorlar, tadbirkorlar, davlat hokimiyati organlari va boshqa manfaatdor tomonlarga jarayonlarni shaffof, qonuniy va jahonning ilg‘or tajribalariga mos ravishda o‘tkazishning yuqori darajada namoyish etilishini ta’minlaydi.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJda korrupsion risklarning oldini olishda korrupsion risklar ro‘yxati bo‘yicha yo‘l xaritasi” hamda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi xavfini kamaytirish yuzasidan 2024-yilga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarini qabul qilish va kompleans nazorat tizimida yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarliklarni xabar qilish uchun quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Maxsus + 998 71 -208-56-49 raqamli ishonch telefoni tashkil qilindi;

Alohida biznesetika@uzbekistonmet.uz elektron pochta ochildi va mas‘ul xodim biriktirildi;

<https://www.facebook.com/elektrtarmoq/> - facebook sahifasi mavjud;

t.me/uzmetaxborotxizmati - maxsus telegram kanali ochildi.

Sovg‘alar va unga tenglashtirilgan qimmatbaho buyumlarni ro‘yxatdan o‘tkazish reyestri shakllantirildi.

Shu bilan birga, Jamiyatning elektron manzillari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan ma‘lumotlar bilan tanishish mumkin.

|| Veb-sahifa: <https://www.uzbekistonmet.uz/>

|| Telegram: <http://t.me/uzmetaxborotxizmati>

|| Facebook: <https://www.facebook.com/elektrtarmoq>

|| Instagram: <https://www.instagram.com/uzbekistonmet.uz>

|| Twitter: <https://twitter.com/uzbekistonmet>

|| Odnoklassniki: <https://ok.ru/group/61026265792660>

|| Utube: <https://utube.uz/ru/users/7208>

|| Youtube <https://www.youtube.com/channel/UC6cRpsasTIKnReaCXXqcedg>

|| VIDEODARSLAR VA TEST-SINOV MASHG‘ULOTLARI: <https://t.me/+Pz1qHR0W8mYzNmZi>

|| Korrupsiyaga qarshi kurashish: <https://t.me/+qCweNscaSEhINGM6>

✉ Elektron pochta: info@uzbekistonmet.uz

✉ E-xat: uzbekiston_met@exat.uz

☎ Call centre raqami: + 998 (55) 500-5545

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida Jamiyat faoliyatining barcha yo‘nalishlaridagi korrupsiyaviy shart-sharoitlarni minimallashtirish hisobiga korrupsiya huquqbuzarligi minimal darajaga tushirildi. Jamiyat ishchi-xodimlari o‘rtasida korrupsiya va uning oqibatlari to‘g‘risida seminarlar o‘tkazildi.

Jamiyatning uzbekistonmet.uz veb-saytidagi “murojaatlar” rukni orqali jamoatchilik vakillari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot yo‘lga qo‘yildi. Elektron sahifaga viloyat magistral elektr tarmoqlari to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar, jumladan, ularning rahbarlari, joylashgan manzili va telefon raqamlari joylashtirildi.

Jamiyatning rasmiy veb-sahifasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” “Raqobat cheklanishi to‘g‘risida xabar ber” interaktiv tugmachalar yaratildi,

shuningdek, kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilib borish va murojaatlarni ro'yxatdan o'tkazish jurnali joriy qilindi.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJga 01.01.2024 dan 01.04.2024 gacha jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlari kelib tushmagan.

III. Minimallashtirish choralari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmoni, ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari – foydalanish bo‘yicha talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti hamda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish (minimallashtirish) bo‘yicha 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Unda quyidagi holatlar aks etildi:

- “To‘rt ko‘z” tamoyilini amalga oshirish, majburiy talablar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni nazorat qilinadigan subyektlarga yetkazish, Jamiyat tomonidan yuqori darajadagi tegishli ma‘lumotlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

- qaror qabul qilishning aniq asoslari va mezonlarini belgilash, qaror qabul qilishda ma‘muriy ixtiyoriylikni yo‘q qilish, majburiy talablarning buzilishini dastlabki aniqlash paytida nazorat qilinadigan subyektlarning ayrim toifalari uchun ogohlantirish tizimini joriy etish;

- bittadan ortiq mahsulot, ish, xizmatni o‘z ichiga olgan har xil tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni bir xil xaridda birlashtirish maqsadga muvofiqligini Jamiyat vakolatli bo‘linmasi tomonidan baholash, davlat organining vakolatli bo‘linmasi tomonidan boshqariladigan subyekt va xizmatchilar (xodimlar) o‘rtasida mumkin bo‘lgan affilanganlik mavjudligini tekshirish;

- rejalashtirilgan tekshiruvlarni o‘tkazishning yillik rejasi loyihasini tuzishda jamiyat va nazorat organining vakolatli bo‘linmasi nazorat qilinadigan subyekt bilan Jamiyat va nazorat organi (xodimlar) xizmatchilari o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini tekshirishlarni kamashtirishni o‘z ichiga olgan.

**Muvofiqlik tizimi (komplayens)
xizmati boshlig‘i**



N. Abdullayeva